



## ANDIJON TARAQQIYPARVARLARI FAOLIYATI

*Davronova Rashidaxon Qahramon qizi*

*Andijon viloyati Xo‘jaobod tumani MMTBga qarashli 29- mактабning Tarix  
fani o‘qituvchisi*

XX asr boshlaridayoq milliy ozodlik bayrog’ini baland ko’tarib, milliy kuchlar borligini taminlash borasida salmoqli faoliyat ko’rsata boshlagan Turkiston jadidlari jahon jamoatchiligi e’tiborini o’ziga jalb qiladi. 1906 yilning bahorida Fransiya Respublikasi bosh shtabi ikkinchi byurosi (xarbiy razvetka) topshirig’i bilan mayor Lyakost ikki yil davomida Turkistondagi ijtimoiy -siyosiy vaziyat bilan yaqindan tanishdi<sup>1</sup>. U o’zining kuzatishlarini xisobot tarzida “Комита де Асия Франсайс” nomli jurnalda chop etiladi. Maqola yevropada katta qiziqish uyg’otadi. Bu maqolada Turkiston general -gubernatorligi xududidagi ijtimoiy - siyosiy kuchlar va partiylar faoliyatini sharxlab beradi. Bu maqola natijasida ko’lab yangi ma’lumotlarga ega bo’lishdi.

E’tiborli tomoni shundaki, fransuz razvedkachisining o’tkir nigohi bilan Turkistonda qaysi partiya, qaysi siyosiy siyosiy oqimi kuchli ekani shunday aniqlab berildiki, bu xol siyosiy rus siyosiy politsiyasini jiddiy tashvishga soldi.

Mayor Lyakost Turkiston o’lkasidagi eng etiborli va kelajagi porloq tashkilot sifatida sotsial- demokratlar (Bolshevik va mensheviklar) yoki sotsialist-inqilobchilari (so’l va o’ng eserlar), yo kedet va liberallar emas, balki yosh sartlar<sup>2</sup> degan xulosaga kelgan edi. Razvetkachi Turkistonda jadidlар ta’siri kuchli bo’lgan o’z fikriga ega ekan va 1906 yilning yanvarida sankt -Peterburgda, Umumrussiya musulmonlarning qurultoyiga vakil yuborganini ta’kidlab, bu fikrda bu firqa huddi

<sup>1</sup> Andijon tarixidan lavhalar Andijon nashriyoti-matbaa OAJ 2008 yil 70-71bet

<sup>2</sup> Rasmiy idoralar jadidlarni yosh turklarga qiyoslab “yosh sartlar” deb atashgan.



qozon tatarlari kabi o'zining milliy dasturiga egaligi va rus istibdodiga jiddiy zarb berishi mumkinligiga ishora qilgan edi<sup>3</sup>.

Jadidchilik dastavval Buxoroda, so'ngra Qozon, Ufa, Qrimda, Turkiston, Xivada marifatchilik tarzida yuzaga keldi. O'rta Osiyoda jadidchilik ma'rifatchilikda asta-sekin mafkuraviy xarakatga o'sib chiqdi. Bu mintaqada endigina shakllanib kelayotgan milliy burjuajiya o'z siyosati, o'z mafkurasiga jadidchilik harakatida o'z ifodasini topdi. XIXAsr oxiri XX asr birinchi choragida faoliyat ko'rsatgan jadidlar orasida Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy, Mustafo Cho'qayev, Toshpo'lat Norbo'tabekov va boshqalar bor edi. Bu insonlar Andijon yoshlarini tarbiyalashda, qalbida vatanga bo'lган, tuyg'uni shakllantirishga katta xizmat qilgan taraqqiyarvarlardir.

Andijonlik jadidlar haqida gap ketganda, biz yozuvchi Cho'lpon, mudarris Abdurahim Yusufzoda, huquqshunos Ubaydulla Asadullaxo'jayev, boy, milliy burjuaziyaning tipik vakili Ahmadbek hoji Temirbekov, Akbar O'rozaliyev, Sulaymon Kelginboyev, Olimjon hoji Yusupov, Qo'chqor Olimov, Mamajon hoji Yoqub Sarkorov, Olimjon Yoqub Sarkorov kabilarni nazarda tutamiz<sup>4</sup>. Aksariyat asarlarda jadidlar 1916 yilgi xalq qo'zg'oloniga salbiy munosabatda bo'lган, shu bois ular chor xukumatining mardikorlikka olish siyosatini qo'llab - quvvatlab chiqdilar, degan fikr bayon etilgandi. Ammo bir talay xujjatlar, ma'lumotlar aslida bunday bo'lмаганлигидан guvohlik berib turibdi. Ma'lumot yig'ar ekanman ba'zi manbalar jadidlar faqat qoralanganini, ko'lab tarixchilarimiz esa bor haqiqatni yuzaga chiqarishga harakat qilganini maqolalar orqali ko'rishimiz mumkin.

<sup>3</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiysi mustamlakachiligi davrida (X.Sodiqov, R.Shamsutdinov, P.Ravshanov, Q.Usmonov) "sharq" nashriyot- matbaa konserni Bosh tahririyyati. Toshkent, 2000, 264-265 betlar.

<sup>4</sup> Andijon tarixidan lavhalar "Andijon nashriyot- matbaa" OAJ 2008 yil 73- bet.



Shu yil iyulida Andijon jamoatchiligi nomidan Ubaydulla Xo'jayev, millioner boy Mirkomil Mirmominboyev, eser Vadim Chaykin Peterburgga borib, IV Davlat Dumasiga Turkistonda ro'y bergan voqealarni izohlab, Andijonga Duma a'zolaridan tuzilgan maxsus komissiyaning kelishi masalasini qo'yiladi. Davlat Dumasi a'zolaridan Raevskiy, Vinogradov va K.V.Tevkeleev Oliy Bosh Qo'mondonlik qarargohiga – harbiy ministrga telegramma yo'llab, unda Turkiston o'lkasi rus aholisi harbiy majburiyatdan ozod etilgan holda mahalliy aholidan mardikor olishga shoshilish ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan xatarli ekanligi aytilgandi. Bunga muvofiq Nikolay II Turkistonda mardikorlikka olish muddatini 1916 - yilning 15 sentabrigacha kechiktirish haqida farmon beriladi. G'arbiy front qo'mondoni A.N.Qurapatkin Toshkentga Turkiston general gubernatori qilib jo'natiladi. U bulan birga IV Davlat Dumasi a'zolari A.F.Kerenskiy, K.B .Tevkeleevlar ham birga kelishadi, o'lkaza birgalikda safar qilib, mahalliy aholini "tinchitish" choralarini ko'ra boshladilar.

Bu haqda "Turkestanskiy golos" gazetasi 1916- yil 25 avgustda shunday xabar qilgan: Kecha 24 avgust kuni Andijonga Davlat Dumasi a'zolari A.F.Kerenskiy va K.B.Tevkeleevlar kelishdi. Kechki poyezd kelishi oldidan deputatlarni kutib olish uchun perronga ko'pgina omma to'planadi. Deputatlar "Slava Rossii" mehmonhonasi (xozirgi Istiqlol ko'chasidagi viloyat xalq ta'imi boshqarmasi joylashga ikki qavatli bino-R. Sh) to'xtashdi. Deputatlar bilan birga Sh. Z. Muhammadiyorov va M. Cho'qayev kelishdi".

25 avgust kuni ertalab soat 10da A.F Kerenskiy K.B.Tevkelev ularni kuzatuvchi shaxslar bilan birgalikda "Slava rossii" mehmonxonasidan ochiq ekipajda Eski shaharga, Jome masjidiga qarab yo'l oladilar, bu yerda ular musulmonlar vakillari va madarsadagi ma'mur shaxslar tomonidan kutib olindi.



**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Qodirov M. *Jadidlar va taraqqiyarvarlar harakati: tarixiy-siyosiy tahlil.* – Toshkent: Akademnashr, 2014.
3. Quronboyev G‘. *Jadidchilik tarixidan lavhalar.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
4. Nurmonov A. *O‘zbek jadid adabiyoti va uning taraqqiyot bosqichlari.* – Toshkent: Fan, 2002.
5. Rajabov A. *Jadidlar: milliy uyg‘onish yo‘li sari.* – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
6. Axmedov M. *Andijon vohasi jadidchiligi tarixidan.* // *O‘zbekiston tarixi*, 2012, №3.
7. Mamajonov A. *Andijon jadidlari faoliyati va ularning ma’rifiy qarashlari.* // *Sharq yulduzi*, 2006, №2.
8. Qosimov B. *Jadidchilik – milliy uyg‘onish harakati.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2011.